



**O‘RTA MAKTABLARDA “JANUBIY AMERIKA MATERIGINING  
GEOGRAFIK O‘RNI VA O‘RGANILISHI” MAVZUSINI O‘QITISHDA  
XARITA ASOSIDAGI INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH  
IMKONIYATLARI**

**Avezov M.M., Frunzayeva Y.N.**

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zMU Geografiya va geoaxborot  
tizimlari fakulteti Tabiiy geografiya kafedrası

Toshkent, O‘zbekiston. E-mail: [yasminafrunzayeva@gmail.com](mailto:yasminafrunzayeva@gmail.com)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada 7-sinf geografiya darslarida “Janubiy Amerika materigining geografik o‘rni va o‘rganilishi” mavzusini o‘qitishda xarita asosidagi interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida o‘quvchilarning xarita bilan ishlash, geografik obyektlarning joylashuvini aniqlash, ularni tahlil qilish va turkumlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan “Joylashuv” va “Charxpalak” metodlari amaliy sinovdan o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, “Joylashuv” metodi o‘quvchilarda fazoviy tasavvur va kartografik savodxonlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etsa, “Charxpalak” metodi o‘zaro tekshirish, taqqoslash va reflektiv tahlil elementlari orqali topshiriqlarni bajarish aniqligini oshirishda nisbatan samaraliroq bo‘ldi. Tajriba natijalariga ko‘ra, xatolar sonining kamayishi va o‘quvchilarning faol ishtiroki ortishi mazkur metodlarning didaktik samaradorligini tasdiqlaydi. Tadqiqot yakunlari xarita asosidagi interfaol metodlardan geografiya ta’limida foydalanish o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda fazoviy tafakkurini shakllantirishda muhim pedagogik vosita ekanligini asoslaydi.

**Kalit so‘zlar:** Janubiy Amerika, geografik o‘rin, xarita asosidagi ta’lim, interfaol metodlar, “Joylashuv” metodi, “Charxpalak” metodi, kartografik savodxonlik, fazoviy tafakkur, geografik obyektlar, taqqoslash, reflektiv fikrlash, o‘zaro baholash, geografiya ta’limi.





**Avezov M.M., Frunzayeva Y.N.**

National University of Uzbekistan named after Mizro Ulugbek, Faculty of  
Geography and GIS, Department of Physical Geography.

Tashkent, Uzbekistan. E-mail: [yasminafrunzayeva@gmail.com](mailto:yasminafrunzayeva@gmail.com)

### **POSSIBILITIES OF USING MAP-BASED INTERACTIVE METHODS IN TEACHING THE TOPIC “GEOGRAPHICAL LOCATION AND STUDY OF THE SOUTH AMERICAN CONTINENT” IN SECONDARY SCHOOLS**

**Annotatsion.** This article analyzes the effectiveness of using interactive methods based on maps in teaching the topic “Geographical Location and Study of the South American Continent” in 7th-grade geography lessons. In the research process, the "Location" and "Wheel" methods, aimed at developing students' skills in working with maps, determining the location of geographical objects, analyzing them, and classifying them, were tested in practice. The results showed that the "Location" method plays an important role in the formation of spatial imagination and cartographic literacy in students, while the “Wheel” method is relatively more effective in increasing the accuracy of completing tasks through elements of mutual verification, comparison, and reflexive analysis. According to the results of the experiment, a decrease in the number of errors and an increase in the active participation of students confirm the didactic effectiveness of these methods. The research results substantiate that the use of interactive methods based on maps in geography education is an important pedagogical tool for strengthening students' knowledge, developing practical skills, and forming spatial thinking.

**Keywords:** South America, geographical location, map-based learning, interactive methods, “Location” method, “Wheel” method, cartographic literacy, spatial thinking, geographical objects, comparison, reflective thinking, mutual assessment, geography education.

**Kirish.** Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish, uning mazmuni va metodikasini zamon talablari asosida takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ta’lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasini oshirish, balki ularning mustaqil fikrlash, tahlil





qilish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning individual xususiyatlari, bilim darajasi va o'zlashtirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda bilim, malaka va ko'nikmalarni kompleks tarzda rivojlantirish asosiy didaktik talab sifatida e'tirof etilmoqda [1].

Geografiya ta'limi mazmuni esa o'zining ko'p qirrali va amaliy yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Xususan, "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" kursi o'quvchilarda Yer yuzasining hududiy tuzilishi, tabiiy komponentlar o'zaro bog'liqligi hamda global geografik qonuniyatlar haqidagi yaxlit tasavvurlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Mazkur kursni samarali o'qitish esa faqatgina nazariy ma'lumotlarni yetkazish bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchilarni faol bilish jarayoniga jalb etishni, ularning amaliy faoliyatini tashkil etishni talab etadi.

An'anaviy o'qitish usullarida o'quvchi ko'proq passiv tinglovchi rovida qolib ketishi mumkin, bu esa bilimlarning yuzaki o'zlashtirilishiga olib keladi. Shu sababli hozirgi sharoitda interfaol metodlardan foydalanish pedagogik zaruratga aylanmoqda. Interfaol metodlar o'quvchini ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantiradi, uni mustaqil izlanishga, fikr almashishga va hamkorlikda ishlashga undaydi [2]. Ayniqsa, geografiya fanida bunday yondashuvlarning qo'llanilishi yuqori samaradorlikni ta'minlaydi.

Geografiya darslarining o'ziga xos jihati shundaki, unda xarita asosiy axborot manbai va o'quv vositasi sifatida xizmat qiladi. Shu bois o'quvchilarda kartografik savodxonlikni shakllantirish, ya'ni xaritani o'qish, undan ma'lumot olish, geografik obyektlarni aniqlash, ularning o'zaro joylashuvi va hududiy xususiyatlarini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Interfaol metodlar aynan shu jarayonni samarali tashkil etish imkonini beradi, chunki ular o'quvchini xarita bilan bevosita ishlashga, mustaqil xulosa chiqarishga va o'z fikrini asoslashga yo'naltiradi [1]. Natijada o'quvchilarda nafaqat geografik bilimlar mustahkamlanadi, balki fazoviy tafakkur, mantiqiy tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish kabi yuqori darajadagi kognitiv ko'nikmalar ham shakllanadi. Bu esa o'z navbatida, geografiya fanini o'qitishda interfaol metodlarning ahamiyatini yanada oshiradi hamda ularni amaliyotda keng qo'llash zarurligini asoslaydi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, geografiya ta'lim jarayonida interfaol metodlardan foydalanish nafaqat dolzarb, balki metodik jihatdan zaruriy





yoʻnalishlardan biri sifatida namoyon boʻladi. Chunki zamonaviy taʼlim paradigmasi oʻquvchini passiv axborot qabul qiluvchi emas, balki bilimni mustaqil ravishda egallovchi, tahlil qiluvchi va amaliyotda qoʻllovchi faol subyekt sifatida koʻrishni taqozo etadi. Interfaol metodlar aynan shu ehtiyojdan kelib chiqib, oʻquvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, ularni dars jarayoniga jalb etadi hamda oʻzaro hamkorlik asosida oʻrganish muhitini yaratadi.

Ayniqsa, “Janubiy Amerika materigining geografik oʻrni va oʻrganilishi” mavzusini oʻqitishda xarita bilan ishlash markaziy oʻrinni egallaydi [4]. Mazkur mavzu oʻz mohiyatiga koʻra, materikning geografik joylashuvi, chegaralari, chekka nuqtalari, asosiy relyef shakllari hamda tabiiy obyektlarining hududiy joylanishini aniqlash bilan bevosita bogʻliqdir [3]. Shu sababli oʻquvchilar ushbu bilimlarni samarali oʻzlashtirishlari uchun xarita bilan mustaqil ishlash, undagi axborotni oʻqish va talqin qilish koʻnikmalariga ega boʻlishlari zarur.

Xarita asosidagi faoliyat oʻquvchilarda fazoviy tafakkurni rivojlantirish, geografik obyektlar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni anglash va hududiy qonuniyatlarni tushunishga xizmat qiladi. Interfaol metodlar esa ushbu jarayonni yanada samarali tashkil etishga imkon yaratadi, chunki ular oʻquvchilarni xarita bilan bevosita ishlashga, obyektlarni aniqlashga, ularning joylashuvini taqqoslashga va mustaqil xulosalar chiqarishga yoʻnaltiradi. Natijada oʻquvchilar mavzuni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy asosda ham chuqur oʻzlashtiradilar, bu esa ularning geografik bilimlari barqarorligini taʼminlaydi.

**Natijalar va ularning muhokamasi.** Mazkur tadqiqot Toshkent viloyati Yangiyoʻl tumani 29-umumiy oʻrta taʼlim maktabining 7-sinf geografiya darslarida “Janubiy Amerika materigi” mavzusini oʻqitish jarayonida tajriba-sinov asosida olib borildi. Tadqiqotda jami 24 nafar oʻquvchi ishtirok etib, ular 12 ta juftlikka ajratildi. Dars jarayonida ikki xil interfaol metod qoʻllanildi va ularning natijalari alohida baholandi. Tadqiqotning metodik yoʻnalishi oʻquvchilarda kartografik kompetensiyalarni, xususan, xarita bilan ishlash, geografik obyektlarning joylashuvini aniqlash, ularni oʻzaro taqqoslash va hududiy qonuniyatlarni anglash koʻnikmalarini rivojlantirishga qaratildi. Shu maqsadda dars jarayoniga interfaol metodlar tizimli ravishda integratsiya qilinib, oʻquvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish hamda amaliy koʻnikmalarini mustahkamlashga alohida eʼtibor qaratildi.





Tadqiqot davomida qoʻllanilgan metodlardan biri — “Joylashuv” metodi oʻzining didaktik mohiyatiga koʻra oʻquvchilarda fazoviy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida namoyon boʻldi. Ushbu metod asosida oʻquvchilar geografik obyektlarni faqat nomi orqali emas, balki ularning boshqa obyektlarga nisbatan joylashuvi, yoʻnalishi va hududiy oʻrni orqali aniqlashga oʻrgatiladi. Bunday yondashuv oʻquvchilarning xarita bilan ishlash jarayonida analitik fikrlashini rivojlantirib, ularni oddiy eslab qolish darajasidan yuqori — tushunish va tahlil qilish bosqichiga olib chiqadi.

Dars jarayonida oʻquvchilar juftliklarda tashkil etilib, ularga Janubiy Amerika materigining tabiiy xaritasi asosiy oʻquv vositasi sifatida taqdim etildi. Juftliklarda ishlash oʻquvchilar oʻrtasida hamkorlik muhitini shakllantirib, oʻzaro fikr almashish va muhokama orqali bilimlarni chuqurlashtirish imkonini berdi. Oʻquvchilar xarita asosida And togʻ tizmasi, Amazonka pasttekisligi, Gviana yassitogʻligi kabi asosiy relyef shakllarini aniqlab, ularning materikdagi geografik joylashuvini belgiladilar. Bu jarayonda ular nafaqat obyektlarni topish, balki ularning oʻzaro joylashuvini tahlil qilish, hududiy bogʻliqliklarni aniqlash kabi murakkab kognitiv faoliyatni amalga oshirdilar.

Topshiriqlarni tashkil etish jarayonida ularning yozma shaklda bajarilishi va keyingi bosqichda oʻquvchilar tomonidan oʻzaro tekshirish asosida tahlil qilinishi darsning metodik samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Mazkur yondashuv oʻquvchilarga nafaqat tayyor bilimni qabul qilish, balki oʻz faoliyati natijalarini mustaqil baholash, xatolarni aniqlash va ularni bartaraf etish imkonini yaratdi. Aynan shu jarayon reflektiv fikrlashning shakllanishiga xizmat qilib, oʻquvchilarda oʻz bilimiga tanqidiy yondashish, xulosalar chiqarish va oʻz-oʻzini nazorat qilish koʻnikmalarini rivojlantirdi. Natijada “Joylashuv” metodi oʻquvchilarning kartografik savodxonligini oshirish, xarita bilan ishlash malakalarini mustahkamlash hamda geografik obyektlarning hududiy joylashuvini ongli ravishda idrok etish jarayonida samarali pedagogik vosita sifatida namoyon boʻldi.

Dars jarayonida oʻquvchilar Janubiy Amerika materigining tabiiy xaritasi asosida ishlash orqali asosiy relyef shakllarini aniqladilar, ularning materik boʻylab joylashuv qonuniyatlarini tahlil qildilar va oʻzlashtirilgan bilimlarni yozma topshiriqlar orqali mustahkamlashdi. Ushbu faoliyat jarayonida oʻquvchilar geografik obyektlarni aniqlash bilan cheklanib qolmay, balki ularning oʻzaro bogʻliqligi, joylashuvidagi





mantiqiy izchillik va hududiy farqlanishlarni ham anglab yetdilar. Keyingi bosqichda esa topshiriqlar o‘zaro tekshirish asosida ko‘rib chiqilib, bajarilgan ishlarning to‘g‘riligi tahlil qilindi. Bu esa bilimlarni mustahkamlash bilan bir qatorda, o‘quvchilarda hamkorlikda ishlash, o‘zaro baholash va dalillash ko‘nikmalarini ham rivojlantirdi.

“Joylashuv” metodining amaliy qo‘llanilishi o‘quvchilarning fazoviy tafakkurini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etdi. Mazkur metod asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar tizimi o‘quvchilardan geografik obyektlarning nomlarini eslab qolishni emas, balki ularning nisbiy va mutlaq joylashuvini tushunishni talab etadi [5]. Masalan, materikning g‘arbiy qismida Tinch okean bo‘ylab cho‘zilgan tog‘ tizmasini aniqlash, markaziy qismdagi yirik pasttekislikni belgilash yoki shimoliy-sharqiy hududda joylashgan yassitog‘likni topish kabi vazifalar o‘quvchilarning xarita bilan ishlash jarayonida mantiqiy tahlil qilish faoliyatini kuchaytiradi. Shuningdek, materikning g‘arbiy va sharqiy qismlarini taqqoslash, relyefning umumiy tuzilishini aniqlash hamda shimoldan janubga cho‘zilgan yirik tog‘ tizmasini belgilash kabi topshiriqlar o‘quvchilarda hududiy tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur metodik yondashuvning yana bir muhim jihati shundaki, topshiriqlar ketma-ketlik asosida murakkablashib boradi va bu o‘quvchilarning bilimlarini bosqichma-bosqich chuqurlashtirish imkonini beradi. Dastlab oddiy joylashuvni aniqlashga qaratilgan savollar berilsa, keyingi bosqichlarda obyektlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntirish, ularni taqqoslash va umumlashtirish talab etiladi. Bu esa o‘quvchilarning reproduktiv darajadan produktiv va ijodiy fikrlash bosqichiga o‘tishini ta’minlaydi.

“Joylashuv” metodini Janubiy Amerika mavzusiga qo‘llanilishi quyidagicha:

**O‘quvchi uchun qo‘llaniladigan “Joylashuv metodi”ga xos topshiriqning  
namunaviy ko‘rinishi**

1. \_\_\_\_\_ tog‘ tizmasi materikning g‘arbiy qismida, Tinch okean bo‘yida joylashgan.
2. \_\_\_\_\_ pasttekisligi materikning markaziy qismida joylashgan.
3. G‘arbiy qismdagi tog‘lar \_\_\_\_\_ okeani bo‘ylab joylashgan.
4. \_\_\_\_\_ yassitog‘ligi materikning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan.
5. \_\_\_\_\_ pasttekisligi materikning janubiy-sharqiy qismida joylashgan.





6. Materikning g'arbiy qismida \_\_\_\_\_, sharqiy qismida esa \_\_\_\_\_ dan iborat.
7. \_\_\_\_\_ tog' tizmasi materik bo'ylab shimoldan janubga cho'zilgan.
8. Materikning markaziy qismi asosan \_\_\_\_\_ dan iborat.

Shunday ma'lumotlar ketma-ketlik asosida davom etadi. Ushbu savollarga o'quvchilar atlas va xarita orqali javob berishlari kerak bo'ladi.




**2-rasm. “Joylashuv” metodining 7-sinf o‘quvchilarida qo‘llanilishi**

“Joylashuv” metodini qo‘llash natijalari shuni ko‘rsatdiki, 12 ta juftlikdan 10 tasi topshiriqlarni to‘g‘ri bajardi, 2 ta juftlikda esa ayrim xatolar kuzatildi. Bu umumiy natijaning taxminan 83% ijobiy bajarilganini, 17% holatda esa qiyinchiliklar yuzaga kelganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, “Joylashuv” metodining Janubiy Amerika materigini o‘rganishda qo‘llanilishi o‘quvchilarning geografik bilimlarini chuqurlashtirish, xarita bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda fazoviy tafakkurni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Ushbu metod orqali tashkil etilgan o‘quv faoliyati nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va o‘zaro hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini rivojlantirishga ham xizmat qildi.

**“Charxpalak” metodi.** “Charxpalak” metodi geografiya ta’limida o‘quvchilarning egallagan bilimlarini tizimlashtirish, mustahkamlash va nazorat qilishga yo‘naltirilgan samarali interfaol yondashuvlardan biri sifatida qaraladi [5].





Ushbu metodning didaktik mohiyati shundaki, u o‘quvchilarni geografik obyektlarni turkumlash, ularning asosiy xususiyatlarini ajratib ko‘rsatish hamda ularni to‘g‘ri identifikatsiya qilish jarayoniga faol jalb etadi. Natijada o‘quvchilar nafaqat faktik bilimlarni eslab qoladi, balki ularni mantiqiy tizimga solish va amaliy vaziyatlarda qo‘llash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Mazkur metodni qo‘llash jarayonida dars faoliyati juftliklar yoki kichik guruhlar asosida tashkil etiladi, bu esa o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik muhitini shakllantiradi. Ularga Janubiy Amerika materigining tabiiy xaritasi asosida tuzilgan maxsus jadval taqdim etiladi (1-jadval). Jadvalda turli geografik obyektlar — tog‘lar, daryolar, ko‘llar, cho‘llar va materikning chekka nuqtalari keltirilgan bo‘lib, o‘quvchilardan ushbu obyektlarni tegishli kategoriyalarga ajratish talab etiladi. Masalan, Akonkagua tog‘ tizmasi sifatida, Amazonka daryo sifatida, Atakama cho‘l sifatida, Titikaka ko‘l sifatida, Parinyas esa materikning chekka nuqtasi sifatida aniqlanishi, geografik obyekt hamda uning turiga mos katakka “+” belgisi qo‘yilishi lozim (2-jadval).

1-jadval

**O‘quvchi uchun topshiriq sifatida qo‘llaniladigan “Charxpalak metodi”ga xos jadvalning namunaviy ko‘rinishi**

T/r	Obyekt nomlari	Tog‘	Cho‘l	Ko‘l	Daryo	Chekka nuqta
1.	Akonkagua					
2.	Amazonka					
3.	Atakama					
4.	Titikaka					
5.	Parinyas					

2-jadval

**O‘qituvchi uchun taxminiy to‘g‘ri javoblardan iborat jadval ko‘rinishi**

T/r	Obyekt nomlari	Tog‘	Cho‘l	Ko‘l	Daryo	Chekka nuqta
1.	Akonkagua	+				
2.	Amazonka				+	
3.	Atakama		+			





4.	Titikaka			+		
5.	Parinyas					+

Topshiriqlarni bajarish jarayonida o‘quvchilar xarita bilan bevosita ishlaydi, obyektlarning joylashuvini aniqlaydi va ularning turini belgilaydi. Bu esa ularda kartografik bilimlarni amaliy qo‘llash, obyektlarni fazoviy jihatdan tasavvur qilish hamda ularni tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Darsning keyingi bosqichida bajarilgan topshiriqlar guruhlar o‘rtasida almashilib, o‘zaro tekshirish asosida tahlil qilinadi. Mazkur jarayon o‘quvchilarda nafaqat bilimlarni mustahkamlash, balki o‘zaro baholash, xatolarni aniqlash va ularni asoslash kabi reflektiv faoliyatni shakllantiradi.

“Charxpalak” metodining muhim afzalliklaridan biri — uning dinamik va interaktiv xarakterga ega ekanligidir. Ushbu metod orqali o‘quvchilar dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, muammoli vaziyatlarni birgalikda hal etishga intiladi va o‘z fikrini asoslashga harakat qiladi. Bu esa o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini, tanqidiy fikrlashini va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Shu bilan birga, mazkur metod o‘quvchilarda tizimli fikrlashni shakllantirishga ham xizmat qiladi, chunki ular geografik obyektlarni alohida-alohida emas, balki ma’lum bir tizim doirasida, ya’ni ularning turkumiy mansubligi asosida o‘rganadilar. Natijada bilimlar yanada barqaror va mustahkam o‘zlashtiriladi.



**3-rasm. “Charxpalak” metodining qo‘llanilish jarayoni**

Ikkinchi metod — “Charxpalak” metodining natijalari avvalgi metodga qaraganda biroz yuqoriroq bo‘ldi. Ushbu metod bo‘yicha 12 ta juftlikdan 11 tasi





topshiriqlarni to'g'ri bajardi, faqat 1 ta juftlikda xatolik kuzatildi. Bu esa umumiy natijaning 92% muvaffaqiyatli bajarilganini, 8% holatda esa xatolar mavjudligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, "Charxpalak" metodining Janubiy Amerika materigi haqidagi mavzuni o'qitishda qo'llanilishi o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish, ularni amaliy faoliyatga yo'naltirish hamda hamkorlikda o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Tadqiqot jarayonida olingan empirik natijalar 7-sinf geografiya darslarida "Janubiy Amerika materigining geografik o'rni va o'rganilishi" mavzusini o'qitishda xarita asosidagi interfaol metodlardan foydalanish yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi. Xususan, tajriba natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, "Joylashuv" metodidan foydalanilgan holatda o'quvchilar juftliklarining aksariyati topshiriqlarni muvaffaqiyatli bajargan bo'lsa-da, ayrim (2 ta) juftliklarda xatolar qayd etildi. Shu bilan birga, "Charxpalak" metodi qo'llanilgan vaziyatda xatolar sonining yanada kamayib, atigi 1 ta juftlik doirasida kuzatilgani mazkur metodning nisbatan yuqori aniqlik va samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi.

Mazkur natijalar metodlarning funksional yo'nalishidagi farqlar bilan izohlanadi. Jumladan, "Joylashuv" metodi o'quvchilarning xarita bilan bevosita ishlash faoliyatini faollashtirib, geografik obyektlarning hududiy joylashuvini aniqlash, ularni to'g'ri belgilash va fazoviy tasavvur asosida anglash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Ushbu metod orqali o'quvchilar kartografik materiallarni tahlil qilish, obyektlarning nisbiy joylashuvini tushunish hamda ularni mantiqiy bog'liqlikda idrok etish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

"Charxpalak" metodining qo'llanilishi esa o'quvchilarning bilish faoliyatini yanada murakkab bosqichga olib chiqdi. Bu metod doirasida o'quvchilar nafaqat geografik obyektlarni aniqladilar, balki ularni muayyan belgilariga ko'ra turkumlash, kategoriyalarga ajratish hamda o'zaro tekshirish asosida xatolarni aniqlash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ayniqsa, topshiriqlarning guruhlar o'rtasida almashilishi va natijalarning taqqoslanishi o'quvchilarda tanqidiy fikrlash, tahlil qilish hamda reflektiv yondashuv ko'nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shu jihatdan qaralganda, mazkur metodning samaradorligi undagi o'zaro baholash, taqqoslash va nazorat elementlarining mavjudligi bilan izohlanadi.





Natijalar tahlili shuni ham ko'rsatadiki, ayrim o'quvchilarda xarita bilan ishlash ko'nikmalarining yetarli darajada shakllanmaganligi sababli xatoliklar yuzaga kelgan. Bu esa kelgusida kartografik savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar tizimini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari xarita asosidagi interfaol metodlarni geografiya darslarida, xususan, "Janubiy Amerika materigining geografik o'rni va o'rganilishi" mavzusini o'qitishda qo'llash o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, ularni amaliy faoliyatga yo'naltirish hamda fazoviy tafakkurini rivojlantirishda muhim didaktik vosita ekanligini asoslab berdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Avezov M.M. Tabiiy fanlar (Science) va geografiya o'qitish metodikasi. Darslik. –T.: "Ma'rifat", 2026. — 520 b.

2. Avezov M.M. Tabiiyot va geografiya o'qitish metodikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. –T.: "VneshInvestProm", 2021. — 120 b.

3. Avezov M.M., Hojiyeva M.T., Janzakov A.B., Mirakmalov M.T., Sharipov Sh.M. Geografiya // Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf o'qituvchilari uchun metodik qo'llanma. –T.: "Respublika ta'lim markazi", 2022. — 160 b.

4. Mirakmalov M.T., Sharipov Sh.M., Avezov M.M., Hojiyeva M.T. Geografiya // Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinf o'quvchilari uchun darslik. –T.: "Respublika ta'lim markazi", 2022. — 176 b.

5. Xamroyeva F.A, Hamroyev A.I. Geografiyani o'qitishda innovatsion metodlar. O'quv-metodik qo'llanma. – Samarqand: "ACCESS SERVICE" nashriyoti, 2025. – 74 bet.

